

# **3-MA'RUZA**

**Ultramikroblarning tuzilishi va xususiyatlari.**

Reja:

- 1. Viruslarning kashf etilishi tarixi**
- 2. Strukturaviy xususiyatlari**
- 3. Bakteriofaglar**

**Viruslar** – ultramikroskopik hujayra ichi obligat paraziti bo‘lib, bu guruh mikroorganizmlari faqat tirik organizm hujayrasida (bir yoki ko‘p hujayrali organizmda) rivojlanadilar. Viruslar hayotning zarracha (hujayramas!) ko‘rinishida bo‘lib, ularda moddalar almashinuv jarayoni mavjud emas. Viruslar tirik va o‘lik tabiat o‘rtasida turadi. Viruslar odam, hayvonlar, o‘simliklar, hasharotlar va mikroorganizmlar kasalligini chaqiradi.

**Viruslar boshqa mikroorganizmlardan farq qiluvchi quyidagi xususiyatlarga ega:**

- 1.bakteriologik filtrdan o‘ta olish;
- 2.oddiy sentrifugada sentrifuga qilinganda cho‘kmaga tushmaslik;
- 3.oddiy yorug‘lik mikroskopida ko‘rinmaslik;
- 4.faqat bir turdagи nuklein kislota – DNK yoki RNK – saqlash;
- 5.ularning ko‘payishi uchun faqat nuklein kislotasi lozimligi;
- 6.sun’iy ozuqa muhitida rivojlanmaslik, faqat tabiiy ozuqa muhiti bo‘lgan ho‘jayin organizmida rivojlnana olish ya’ni, viruslarning rivojlanishi uchun tirik hujayra kerak.


# Viruslarning kashf etilishi tarixi

- 1892 yilda Dmitriy Iosifovich Ivanovskiy tamaki mozaikasining qo'zg'atuvchisi bo'lgan virusni topdi. 6 yil o'tgach, Ivanovskiydan mustaqil ravishda, xuddi shunday natijalar M. Beyernik tomonidan olingan. Birinchi virus aynan shunday topilgan. 50 yildan keyin viruslarni faqat elektron mikroskop bilan ko'ra olishgan.
- 1935 yilda U. Stenli bu virusni kristall holda ajratib oldi. Bu kristallni tamaki o'simligiga kiritilganida, u mozayka kasalligining simptomini chaqirgan. Hozirgi kunda ko‘p viruslar kristall holda ajratib olingan.



# *Strukturaviy xususiyatlar*



- 1000 dan ortiq turlari;
- Vira qirolligiga birlashgan 10 nm dan 700 nm gacha bo'lgan o'lchamlari mavjud.
- Shakllari: novdasimon (TMV), o'qsimon (qutirish), sharsimon (OIV, polimielit), ipsimon (gripp), ko'pburchak (gerpes)



Viruslar hujayralari ikkita asosiy komponent nuklein kislota va oqsildan iboratdir.

Bu hujayralarda ikki xil nuklein kislota tutuvchi boshqa tirik organizmlaridan farqli o‘laroq faqat bitta nuklein kislota DNK yoki RNK bo‘ladi. Nuklein kislotalarning soni viruslarning ekologik turlariga bog’liq ravishda turlicha bo‘lib, odamlar va hayvonlar viruslarida 4 dan 9 % gacha, o‘simlik viruslarida 5dan 17% gacha va bakteriofaglarda 45 % gacha bolishi mumkin. Viruslar nuklein kislotalarining azotli asoslari tarkibi boshqa organizmlar nuklein kislotalariniki kabidir. Faqat faglarning nuklein kislotalari sitozin o‘rnida 5-oksitsitzin tutadi. Viruslar DNKsi ikkita ipsimon strukturaga ega bo‘lib, molekulyar oqirligi  $1\times 10^8$ ga tengdir, bu virion massasining 25-50% ni tashkil qiladi. So‘nggi yillarda bakteriyalarning juda mayda faqat bitta ipli DNK tutuvchi guruhlari topilgan. Viruslar RNKsi bir ipli strukturaga ega bo‘lib molekulyar og’irligi  $2\times 10^6$ ga teng. Ayrim RNK tutuvchi viruslar (Senday virus, Iva o‘simlik virusi) molekulyar og’irligi  $9\times 10^6$  bo‘lgan ikki ipli strukturaga ham ega bo‘lishi mumkin. Ikki ipli strukturaga ega bo‘lgan RNK Dnk singari xususiyatlarga ega (rangi, D aktinomitsiniga munosabati).

## Viral Structure



*8-rasm. Virus va bakteriofagning elektron tasviri:*

a) oddiy virionning sxematik tasviri: 1-nuklein kislota; 2-kapsid; 3-kapsomer;

b) bakteriofag;


v) fag tuzilishining sxemasi: 1-boshcha; 2-DNK; 3-o'simta; 4-sterjen; 5-o'simta plastinkasi; 6-ipcha.

# Viruslar

DNK -  
saqlovchi

RNK -  
saqlovchi


- **Kapsid** virusning genetik materialini fermentlar va ultrabinafsha nurlanish ta'siridan himoya qiladi, shuningdek virusning hujayra membranasiga tushishiga yordam beradi. Hujayradan tashqarida viruslar hayot xususiyatlarini ko'rsatmaydi. Viruslar o'z turlarini ko'paytirishga qodir, irsiyat va o'zgaruvchanlikka ega



# Tamaki mozaikasi virusi




Kasal tamaki barglari



RNK zanjiri oqsil qurilish  
bloklari bilan o'ralgan.

# *Viruslar hujayra ichidagi parazitlardir*




*Viruslarning rivojlanish sikli*

*Bir ko'payish siklida tovuq embrionining o'pka hujayrasida parranda vabosi virusining 10 ming virioni ko'payadi; buzoq buyragi hujayrasida esa oyoq va og'iz (yashur) kasalligi virusining 200 ming zarrasi mavjud.*

# Virusli infektsiya turlari:

- **Litik:** hosil bo'lgan viruslar bir vaqtning o'zida hujayradan chiqib ketadi, u yorilib o'ladi va undan paydo bo'lgan viruslar yangi hujayralarni yuqtiradi.
- **Doimiy:** yangi viruslar mezbon hujayradan asta-sekin chiqib ketadi, hujayra esa yashash va bo'linishda davom etib, yangi viruslarni ishlab chiqaradi.
- **Yashirin:** Virusning genetik materiali hujayra xromosomalariga integratsiya qilinadi va u bo'linganda ko'payadi va qiz hujayralarga o'tadi.

# Bakteriofaglar




"bakteriya  
yeyuvchilar"

1915 yilda F. Turt  
tomonidan  
ochilgan


Boshi yorilgan fag. Oldindan  
yaxshilab o'ralgan DNKnинг улкан  
ipi Fagni boshi yorilgach boshidan  
tushib ketdi



# СТРОЕНИЕ И ЖИЗНЕННЫЙ ЦИКЛ БАКТЕРИОФАГА



- 1 - Белковая капсула
- 2 - ДНК вириуса
- 3 - Воротничок
- 4 - Хвостовой чехол
- 5 - Базальная пластинка с шипами
- 6 - Хвостовые нити



- 1 - Бактериальная клетка
- 2 - ДНК бактерии



# Viruslar va faglarning ko'payishi

- *Adsorbsiya*
- *In'ektsiya*
- *Virusli nuklein kislota molekulalarining kamayishi*
- *Virusli oqsillar va fermentlarning sintezi*
- *Virus zarralari yig'ilishi*
- *Lizis*

# *Viruslar keltirib chiqaradigan odamlar, hayvonlar va o'simliklar kasalliklari*

Inson kasalliklari:

Gripp

Chechak

Qizamiq

Qutirish

Poliomiyelit

Sariq isitma

Gepatit

Qizilcha

Ba'zi xavfli o'smalar (saratonli)



# *Viruslar keltirib chiqaradigan odamlar, hayvonlar va o'simliklar kasalliklari*


## **Hayvon kasalliklari:**

**Yashur**

**Saraton**

**Otlarning yuqumli anemiyasi**

**Cho'chqa va qushlar vabosi**



## **O'simlik kasalliklari:**

**Tamaki, bodring, pomidorning mozaikasi  
pakanalik**

**barglarning qayrilishi**

**Sariqlik (желтуха).**

